



MARG'ILON SHAHRI VA UNING TARIXIDAN LAVHALAR

Ibrohimov Oyatilloh G'ayratjon o'g'li

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining markaziy shaharlaridan biri sanaluvchi Marg'ilon shahri, uning paydo bo'lishi, etimologiyasi haqida so'z boradi. Marg'ilon shahrining qisqacha tarixi mavjud adabiyotlar tahlili va ma'lumotlari asosida, atroflicha yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, Marg'ilon shahri, Iskandar, tovuq va non, maysazor, o'tzor, Yunesko, Xonliklar davri, oriflar sandig'i.

Qo'qon xonligi me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqar ekanmiz, bu mintaqaning qadim zamonlardan boshlab taraqqiy etgan madaniy maskanlardan biri bo'lganligini va teran me'mor chilik hamda shaharsozlik tarixiga ega ekanligini ta'kidlab o'tmoq lozimdir. Qo'qon xonligining shaharsozlik madaniyati miloddan avvalgi II-I ming yilliklarga borib taqaladi. Jumladan, Elaton Buzilmas, Olis Iskandariya (Aleksandriya Esxata), Oq tepa, Qul tepa, Munchoq tepa, Mug' qal'a, Ershi singari 2-3 ming yillik tarixni o'zida mujassamlashtirgan shahar xarobalarining qazib o'rganilganligi bundan dalolat berib turibdi. Shuningdek Koson, Quva, O'zgan, Axsi shaharlari o'rta asr tarixiy manbalarida ko'p o'rinlarda tilga olinadi[To'pchiyev U. 2024. 24-b.].

Yuqorida keltirilgan shaharlar sirasidan yana biri Marg'ilon shahri bo'lib, uning 2007-yil xalqaro Yunesko qaroriga binoan, shaharning 2000 yillik tantanalari o'tkazildi. Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar X asrga taalluqli edi. O'sha davrlarda shahar "Marg'inon" deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan.



Marg'ilon shahrining etimologiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Ayrim toponimistlar "marg" — "maysazor", "o'tzor"dan deb taxmin qiladilar. Bundan tashqari, Marg'ilon "murg", va "yunon" so'zlaridan degan mahalliy to'qima rivoyat ham bor.

Tarixchi olim Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" qo'lyozma asarida yozilishicha, shaharga 833-yilda asos solingan. Arxeologik topilmalar Marg'ilon o'rnida milodiy asr boshlaridan aholi yashab kelayotganligini, X asrda u katta qishloq bo'lganligini, XI-XII asrlarda esa shaharga aylanganligi tasdiqlamoqda [www.wikipedia.org. internet sayti].

Sharqshunos olim V. V. Bartold "Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston" asarida Qoraxoniylar davrida ham Marg'ilon viloyatning bosh shahri hisoblanganligini qayd etgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Marg'ilon Farg'onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so'z yuritilib, uning „donayi kalon“ deb ataluvchi anori va „subhoniy“ navli o'rigi maqtaladi [O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari.2011.78-b.].

Shaharning qadimgi qismida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida Marg'ilonga bundan 2 ming yil avval asos solinganligi aniqlandi. Mahalliy ma'lumotlar bo'yicha, shaharning 12 darvozasi bo'lgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Marg'ilon aholisi qadimdan atlas to'qish bilan shug'ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan. Marg'ilonning shoyi matolari Misr, Eron va Yunoniston, Qashg'ar savdogarlari tomonidan ko'plab xarid qilingan. Shuningdek, Marg'ilonda do'ppido'zlik, misgarlik rivojlangan, shaharda vaqt-vaqti bilan tanga ham zarb qilingan. Ushbu shaharning siyosiy tarixi haqida so'zlaydigan bo'lsak, shahar turli davrlarda Temuriylar, Shayboniylar davlatlari, keyingi davrda Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. 1875-yilda rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan [www.wikipedia.org. internet sayti].

Afsonalarga ko'ra, Marg'ilonga Iskandar Zulqarnayn tomonidan asos solingan. Aytishlaricha Zulqarnayn ovqatlangani to'xtaganda, unga Murg' ya'ni "tovuq" va "non" berilgan ekan va shundan Murg'inon bo'lib shaharni nomi kelib chiqqan ekan. Lekin,



boshqa ishonchliroq ma'lumotlarga qaraganda Marg'ilon miloddan avvalgi IX asrda Buyuk Ipak yo'lidagi muhim shaharlardan bo'lgan.

XV asrda yashab o'tkan vatandoshimiz va Boburiylar imperiyasining asoschisi Bobur o'zining "Boburnoma" kitobida Marg'ilon „ko'p yaxshi narsalarga boy shahar. Uning shaftolilari va anorlari ham ko'p yaxshidir“ deb yozgan. Boburning aytishicha „Samarqandning va Toshkentning eng ko'zga ko'ringan bezori va urishqoqlari Marg'ilonliklardir“ [Davletov. 2022. 104-105-b.].

Xonliklar davri tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1710-1876-yillarda Qo'qon xonligi davrida shahar Marg'ilon bekligi markazi, xonlikning muhim strategik ahamiyatga molik kenti bo'lgan. Marg'ilon Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston guberniyasi takibidagi, Farg'ona viloyati, Marg'ilon uyezdi markazi bo'lgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Marg'ilon shahri Farg'onaning qadim va navqiron shaharlaridan biri hisoblanib, 2000 yillik tarixiga egadir. Bu nomning ta'rifi va tavsifiga ko'ra, so'nggi yillardagi tadqiqotlar bu shaharning ma'nosini mayzasor, o'tzor nomlari bilan ta'riflaydilar. Marg'ilon shahri O'zbek davlatchiligi tarixida faoliyat ko'rsatgan davlatlar tarixida munosib o'rin egallagan bo'lib, o'zining ma'naviy, madaniy muhiti juda yaxshi shakllanganligi bilan tarixida qolgan. Zero, manbalarda Marg'ilonni „Sunduqul orifiyn“ ya'ni Oriflar sandig'i deydilar. Bunga sabab esa, bu shahardan juda ko'p olimu fuzalo, oriflarning chiqqanligidandir. Shaharda hamma zamonlarda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalari yuksak darajada rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletov S., Abdullayev M. O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari tarixi. Toshkent. 2022.
2. To'pchiyev U. S. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. Jizzax. 2024.
3. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari – Vatanimiz tarixini o'rganishning moddiy manbalari (mutaxassis talabalar uchun fan majmuasi). Samarqand. 2011.
4. www.wikipedia.org. internet sayti